



## TOSHKENT SHAHRIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2023- yil yanvar - aprel*






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **17 830** tani tashkil etib, 2022- yil 1- mayga nisbatan **4 242** taga kamaygan (o'sish sur'ati **80,9** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **187** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **17 643** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar- aprel oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi **21676,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **111,2** % ga yetdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **8571,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **117,5** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **13105,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **122,7** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **578,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,3** %) tashkil etdi.



# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – aprel oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – aprel oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So'm	2022- yil yanvar – aprel oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahar .</b>	<b>21 676,6</b>	<b>111,2</b>	<b>8 574,1</b>	<b>117,5</b>	<b>13 105,2</b>	<b>122,7</b>
<i>tumanlar:</i>						
Ucntepa	1 931,8	105,1	370,4	122,5	1 561,4	116,1
Bektemir	868,4	112,8	161,6	90,3	706,8	136,5
Yunusobod	2 507,3	116,3	1 231,9	147,4	1 275,4	110,4
Mirzo Ulug'bek	1 411,3	114,4	677,8	122,9	733,5	122,8
Mirobod	1 773,9	107,8	803,6	106,0	970,3	125,0
Shayxontohur	2 211,6	111,6	957,8	116,8	1 253,8	123,2
Olmazor	1 871,2	107,4	795,0	108,9	1 076,1	121,4
Sergeli	1 177,9	111,6	550,0	118,0	627,8	121,6
Yakkasaroy	2 065,9	126,6	944,8	156,1	1 121,1	124,7
Yashnobod	1 659,4	111,0	676,2	107,6	983,1	129,6
Yangihayot	288,3	137,6	120,8	2,3 marta	167,5	122,4
Chilonzor	3 909,7	104,7	1 281,4	93,8	2 628,3	126,8

2023- yilning yanvar - aprel oylarida 2022- yilning yanvar- aprel oyiga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (**137,6 %**), Yakkasaroy (**126,6 %**), Yunusobod (**116,3 %**) va Bektemir (**112,4%**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar - aprel, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2023- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan **11124%** ni yoki **21 676,6** mlrd. so'mni tashkil qildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar –aprel oylari)



2023- yilning yanvar - fevral oyida o'sish sur'ati 109,4% ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani **18,0** % bilan **3 909,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Yangihayot tumani **1,3** % bilan **288,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **13 105,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar – apreil oylariga nisbatan **122,7** % ga ko'paydi. Toshkent shahar miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **60,5** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar – aprel oylariga nisbatan **117,5** % ga o'sdi va **8 571,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **39,5** % ulushiga to'g'ri keldi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar      ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (**12,1 %**), Uchtepa (**7,2 %**) va Yunusobod (**5,9 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **39,5 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (**5,9 %**), Yunusobod (**5,7 %**), Shayxontohur (**4,4 %**), Yakkasaroy (**4,4 %**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Toshkent shahar</b>	<b>7 305,2</b>	<b>107,7</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	6 561,9	102,4
Bektemir	15 424,7	103,5
Yunusobod	6 807,8	113,7
Mirzo-Ulug'bek	4 355,8	111,1
Mirobod	11 841,9	105,3
Shayxontoxur	6 122,9	109,8
Olmazor	4 723,9	104,8
Sergeli	7 221,8	100,9
Yakkasaroy	16 165,3	123,1
Yashnobod	5 698,4	106,6
Yangihayot	1 771,9	129,0
Chilonzor	14 352,7	102,8


2023- yilning yanvar-aprel holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 7 305,2 ming. so'mni (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 107,7 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yakkasaroy (**16 165,3** ming. so'm), Bektemir (**15 424,7** ming. so'm) va Chilonzor (**14 352,7** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Toshkent shahri bo'yicha 2023 - yilning yanvar - aprel oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **578 617,3** mln. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar - aprel oylariga nisbatan **2,7 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **537 365,8** mln. so'mni (**92,9 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **41 251,5** mln. so'mni tashkil etdi (**7,1 %**).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi



## Tumanlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mln. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahar. tumanlar:</b>	<b>578 617,3</b>	<b>122,5</b>	<b>537 365,8</b>	<b>124,8</b>	<b>41 251,5</b>	<b>99,1</b>
Uchtepa	66 390,4	3,2 marta	66 390,4	3,2 marta		
Bektemir	158 169,1	140,7	116 940,8	165,1	41 228,3	99,1
Yunusobod	105 366,9	108,4	105 366,9	108,4		
Mirzo Ulug'bek	73 765,5	94,7	737 65,5	94,7		
Mirobod	22 318,9	452,9	22 318,9	452,9		
Shayxontohur	99 891,3	180,1	99 891,3	180,1		
Olmazor	10 730,7	56,9	10 707,5	56,9	23,2	120,6
Sergeli	18 005,0	120,8	18 005,0	120,8		
Yakkasaroy	8 930,3	55,5	8 930,3	55,5		
Yashnobod	12 074,7	31,0	12 074,7	31,0		
Yangihayot	0,0	-	0,0			
Chilonzor	2 974,5	28,7	2 974,5	20,0		

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.













2023-yilning yanvar - aprel oylarida Toshkent shahrining barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **537 365,8** mln. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**237 306,0** mln.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mln. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	237 306,0
	Non va non mahsulotlari	40 404,5
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	56 682,4
	Tovuq go'shti	60 073,0
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	35 104,3
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	15 373,7
	Tuxum	18 022,0
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	1 011,5
	Ziravorlar	38 572,6
	Tuzlamalar	15 752,8
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	8 265,3
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>10 797,6</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar – aprel oylarida Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **41 251,5** mln. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **33 418,7** mln.so‘m, qo‘y va echkilar – **6 774,0** mln. so‘mni, otlar – **1 035,6** mln. so‘mni, parrandalar – **23,2** mln. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mln. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	26 745,2
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	2 883,5
	1 yoshgacah bo‘lgan yosh mollar	3 790,0
	Qo‘ylar	6 592,0
	Otlar	1 035,6
	Echkilar	182,0
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	11,9
	Tovuqlar	11,4
	Quyionlar	-
	Qushlar	-

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **4 498** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – may holatiga nisbatan **1 688** taga kamaygan va o‘shir sur‘ati **72,7 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni **35** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **4 463** tani tashkil qildi.

2023- yilning yanvar - aprel oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **6,6 %** ni tashkil etib, **1 834,8** mlrd. so‘mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **107,7 %** ga o‘tdi. Bunda savdo aylanmasining **60,1 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>1 834,8</b>	<b>107,7</b>	<b>733,6</b>	<b>126,0</b>	<b>1 101,2</b>	<b>120,1</b>
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	53,4	105,1	-	-	53,4	130,1
Bektemir	42,0	114,1	23,2	147,1	18,8	109,4
Yunusobod	233,9	100,5	72,9	113,3	161,0	117,0
Mirzo Ulug‘bek	165,4	103,1	14,0	160,9	151,4	122,1
Mirobod	131,9	111,3	24,3	131,5	107,6	131,7
Shayxontohur	495,2	104,6	373,1	113,5	122,1	103,1
Olmazor	105,2	94,1	8,6	55,1	96,7	122,9
Sergeli	167,1	160,9	134,4	203,4	32,7	105,8
Yakkasaroy	129,0	102,8	10,3	88,4	118,7	127,6
Yashnobod	145,2	105,8	48,4	114,0	96,8	125,0
Yangihayot	26,5	108,9	-	-	26,5	134,3
Chilonzor	140,0	108,9	24,4	249,0	115,6	119,1



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- may holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **5 885,4** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **105,9 %** ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **3 072,4** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **113,7 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **2 812,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **104,6 %**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Toshkent shahri tumanlar:</b>	<b>5 885,4</b>	<b>100,0</b>
Uchtepa	212,8	3,6
Bektemir	286,4	4,9
Yunusobod	728,9	12,4
Mirzo Ulug'bek	284,4	4,8
Mirobod	209,9	3,6
Shayxontohur	485,9	8,3
Olmazor	36,3	0,6
Sergeli	2 342,7	39,8
Yakkasaroy	491,6	8,4
Yashnobod	343,2	5,8
Yangihayot	172,4	2,9
Chilonzor	291,0	4,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Sergeli (**2 342,7** mlrd. so'm), Yunusobod (**728,9** mlrd. so'm) va Yakkasaroy (**491,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Toshkent shahar bo‘yicha 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **35 755,1** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **106,4** % ga o‘sd.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **23 034,7** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **106,9** % ga to‘g‘ri keldi. Toshkent shahrida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **64,4** % ni tashkil qildi.




# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Yangihayot (**7,6 b.**), Mirobod (**6,2 b.**) va Mirzo Ulug'bek (**5,4 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **14 621** tani tashkil etib, 2022- yil 1- may holatiga nisbatan **1 081** taga kamaygan, o'sish sur'ati **93,1 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **200** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **14 421** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – aprel oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahar .</b>	<b>35 755,1</b>	<b>106,4</b>	<b>12 720,3</b>	<b>105,6</b>	<b>23 034,7</b>	<b>106,9</b>
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	2 610,8	100,9	150,6	100,6	2 460,2	101,6
Bektemir	426,2	116,9	35,9	13,6 marta	390,3	107,9
Yunusobod	3 821,8	113,0	1 162,3	113,5	2 659,5	113,0
Mirzo Ulug'bek	2 727,1	95,8	453,0	95,4	2 274,1	104,1
Mirobod	2 983,5	102,4	760,5	126,2	2 222,9	105,3
Shayxontohur	2 255,1	107,3	537,2	142,6	1 717,9	113,5
Olmazor	6 030,8	112,2	2 924,0	111,3	3 106,8	112,5
Sergeli	1 774,8	98,5	699,1	102,0	1 075,7	93,3
Yakkasaroy	4 287,0	118,1	2 287,0	143,2	2 000,0	94,4
Yashnobod	4 512,0	106,4	2 316,5	111,3	2 195,5	109,1
Yangihayot	157,5	129,3	81,5	2,2 marta	76,0	109,1
Chilonzor	4 168,7	98,7	1 313,0	72,2	2 855,7	114,8



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел. 71-202-88-21 (20)**